



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## STAGES OF ESTABLISHMENT OF SHASHMAQOM MUSHKILOT (INSTRUMENT) DEPARTMENT

Ilyos Arabov<sup>1</sup>

National Institute of Music Art named after Yunus Rajabi

### KEYWORDS

Gardonia, bozgoy, gardun, Iraqi status, mushkilot instrument, classification, tarje, Shashmaqom, classification Rost, Allegro.

### ABSTRACT

The content of the topic has been reflected on the night and today of Shashmakom. At the same time, it was mentioned about his achievements in reaching US and his ideological problems associated with the era's taqazah, about the fact that the audience eventually dwindled. In this regard, we can see the scientific justification of the current situation and its solutions, the innovations carried out by experts in the field.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.13845697](https://doi.org/10.5281/zenodo.13845697)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Associate Professor of the Department of "Maqom Instrumental Performance" of the National Institute of Music Art named after Yunus Rajabi, Uzbekistan

# SHASHMAQOM MUSHKILOT (CHOLG'U) BO'LIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

KALIT SO'ZLAR/

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Gardoniya, bozgo'y, gardun, Iroq maqomi, mushkilot cholg'u, tasnif, tarje, Shashmaqom, Tasnifi Rost, Allegro

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ


Mavzuning mazmuni Shashmaqomning kecha va buguni haqida fikr mulohazalar qilingan. Shu bilan birga bizgacha yetib kelishdagi yutuqlari va davr taqazosiga bog'liq mafkuraviy muammolari, alal-oqibat tinglovchilarning kamayib borganligi haqida to'xtalingan. Bu borada bugungi kundagi holat va uning yechimlari, soha mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan yangiliklar haqida ilmiy asoslanganini ko'rishimiz mumkin.

2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PQ 4947 sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini qabul qilganligi, san'at va madaniyat sohasiga doir 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish" konseptsiyasini ishlab chiqilganligi madaniyat va san'at sohasi rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Sababi shundaki, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash, uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, madaniy an'analarni asrab avaylash, va shu asosida xalq merosini qo'llab-quvvatlash konseptsiyasining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Bu xalq merosini katta bir bo'lagi bo'lgan "Shashmaqom" musiqa janrisiz tasavvur qilib bo'lmaydi albatta. Shu sabab, yuqorida aytib o'tilgan konseptsiyaning amaldagi isboti o'laroq, biz soha mutaxxislari imkon darajasida yanada shakllantirish, tuzatishlar kiritish va mushkilot cholg'u qismiga yangi ijod qilingan notalarni kiritib, talabalar bilan ijo qilishga ham jazm qildik.

Ma'lumki Shashmaqomning mushkilot cholg'u qismi "Tasnif", "Tarje", "Gardun", "Saqil" ni o'z ichiga oladi. Har bir 6 maqom mana shu tartibdagi ketma-ketlikka asoslangandir. Faqatgina "Iroq" maqomi ya'ni oltinchi maqom bundan mustasno edi. "Tasnifi Iroq" va "Tarje Iroq" dan so'ng, "Gardun" qismi yo'q edi. Mana shuni to'ldirish maqsadida "Garduni Iroq"ni usul va o'lchoviga asoslanib kuy bastalashga muvofaq bo'ldik. Bozgo'y bilan boshlanib, xona-bozgo'y ketma-ketligida davom etdi. Mazkur gardun 4 xonadan tashkil topgan bo'lib, "Allegro" tempida yangraydi. Takt ritm o'lchovi esa

murakkabdir. 8/4 (2/4+2/4+3/4). Doira usuli quyidagicha:



O'tmishda, XIII-XVII asrlarda yozilgan musiqa risolalarida Gurduniya yoki Gardoniya nomlari bilan atalgan maqom sho'balari haqida gapiriladi. Ularning bizgacha yetib kelgan shakli Shashmaqomdagi Gardun yo'llaridir. Gardun yo'llari unchalik katta hajmda bo'lmasada, kuy tuzilishi va harakati nuqtai nazaridan Tasnif yoki Tarjelarga ko'ra ancha murakkabdir. Gardun – osmon gardishi, aylana, taqdir ma'nolarida keladi. Musiqa istilohida esa Gardun – ma'lum doyra usulining hamda shu usul jo'rligida muayyan lad (maqom)ga muvofiq ravishda ijro etiladigan kuy yoki ashulaning nomidir.

Biz aynan Iroq maqomida yo'q bo'lgan Gardun qismini bastalab, "Maqom cholg'u ijrochilik" kafedrasi talabalari bilan katta sahnada ommaga olib chiqdik va bu tinglovchilar tomonidan iliq qabul qilindi. Maqom ansambli ijrolari kabi har bir xona bozgo'ylarini asarning imkon darajasiga qarab cholg'ular jo'rligiga teng ajratib oldik. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bizga bunda "Shashmaqom" mushkilot qismining takt o'lchov va ritm me'zonlari andoza vazifasini bajara oldi. Mana shu andozadan chiqmagan holda professional darajada yondoshib, ijod namunalarini yarata olsa bo'lar ekan degan xulosamiz ham yo'q emas albatta.

Eslaylik: O'zbek-tojik xalqlari musiqasining mumtoz namunalari bo'lgan Shashmaqom, taxminan, XVIII asrning birinchi yarmida mustaqil musiqa janri sifatida uzilkesil yuzaga keldi. Qadimiy madaniyat markazlaridan biri Buxoro bir qancha sulola va davlatlar poytaxti bo'lib kelgan. Demak, musiqa madaniyatida ham Buxoro O'rta Osiyo xalqlari musiqa boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan markaziy shahar vazifasini o'tagan ekan. Shuning uchun Shashmaqom Buxoroda shakllandi va "Buxoro Shashmaqomi" deb atalishi bejiz emas.

Musiqachilar ko'pincha maqomlar ijrosi uchun to'rt torli tanburdan foydalanib kelishgan, va uni yetakchi cholg'u ekanligi qayd etilgan.

Ma'lumki, Shashmaqom XIX asrning oxirgi choragida notaga olingan bo'lsada, ilmiy asosda kam o'rganilgan. Maqomlarni notalashtirish maqsadida mashhur bastakor, shoir olim, Paxlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) Xorazm tanbur nota chizig'i ixtiro qilgan. Bu nota usuli maqomlarni o'rganishda zamonasining ahamiyatli ishi bo'ldi. XX asr

boshlarida o'zbek-tojik musiqa san'ati durdonalarini avval professor V.A.Uspenkiy kirishib notaga olgan edi. Maqomdon ustozlar Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'aniyevlar bu ishda nihoyatda muhim rol o'ynadilar. Dastlabki tajribada ashula bo'limining she'riy matnlari qo'yilmay qolganing mavhum sabablari shu bugunda ma'lum bo'ldi deya olamiz. O'sha davrning siyosiy oqimiga qarshi bormaslik uchun (she'r g'azallarning ma'nolarida diniy oshiqlik bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lgan nozik elementlar yashirilgan edi) alloma Fitrat kuylarning notasi bo'lsada yozilishi kerakligini tushungan edi. Bu kamchiliklar esa V.A.Uspenskiyning xizmatlarini kamsitmaydi. Aksincha, merosni butunlay yo'q bo'lib ketishining oldi olindi.

Ilyos Akbarov tahriri ostida bosilib chiqilgan va Yunus Rajabiy tomonidan notaga olingan Shashmaqom to'plamida maqomlarning ashula yo'llarida o'zbekcha va qisman taronalarda tojikcha g'azallardan foydalanilgan. O'zbekiston Radiosi huzurida atoqli san'atkor Yunus Rajabiy rahbarligida 1959-yilda tashkil etilgan maqom ansambl qisqa vaqt davomida to'plamlardagi hamma maqomlarni to'laligicha ijro etib magnit tasmalari va gramoplastinkalarga yozib olishga muvaffaq bo'lishdi. Ikkinchchi nashr esa yanada boyitilib muhim o'zgartirishlar kiritilgan holda yana nashrdan chiqdi.

Bilishimizcha, maqomlarning tarixiy taraqqiyot jarayoni mavjud manbalar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yoritib berish maqsadi maqomdonlar tomonidan uddalandi. Ana shu nota yozuvlar va ansambl ijrolari sabab hozirgi kunga qadar bu qilingan jarayonlar dasturul-amal bo'lib yosh avlodga hali hanuz xizmat qilib kelmoqda. Ammo shuni ham tan olish joizki, davr taqazosi bizning ma'naviyatimizga, madaniyatimizga, musiqamizga sezilarli darajada ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Jirkanch siyosiy o'yinlarda maqomlarni tinglovchilar uchun juda ham zerikarli tarzda ritm temp o'lchovlarini cho'zib ijro qilish buyrug'i ham bor edi. Mana shu xurujlar alal oqibat tinglovchilar nazdida maqom ashula kuylari faqatgina g'amginlik, tushkun kayfiyat va azadorlik hissini bergandek edi go'yo. Shuning uchun ham zamona zayli avlodlar almashinuvi ta'sirida Sobiq Ittifoq davridagi bu maqsad yosh avlodlarga ta'sirini ko'rsatdi. Eskilik sarqitiga aylangan edi go'yo. Misol tariqasida qaraydigan bo'lsak, mushkilot cholg'u qismidagi "Tasnifi Rost" F.Sodiqov ansamblida 6 daqiqani tashkil qilsa, Abdurahim Hamidov rahbarligidagi ansamblida 23 daqiqayu 21 soniyani tashkil qilyapti.

Bizning fikrimizcha hozirgi kunda san'atimiz xazinasini yanada rivojlantirish va

tinglovchilarga eshittira bilish maqsadi qo'yilgan va bunga keng imkoniyatlar berilgan Mustaqillik davrida, yuqorida keltirib o'tilgan g'amginlik va tushkun kayfiyat berib mudroq bosishi uchun xizmat qiladi degan fikrning juda ham no o'rin va noto'g'ri ekanligini yana bir karra isbotlash uchun, amaliyotimizda asl holatidagi ildam va jo'shqin ritm templarini o'z o'rniga qaytargan holda ijro qilishimiz lozim. Ana shundagina yana tinglovchilarining e'tiborini maqom kuylariga qarata olib, ularga eshittira bilamiz va oldimizga qo'ygan maqsadimiz bo'l mish yosh avlodning qalbidan oltin merosimiz, milliy kuylarimizga bo'l gan qiziqishni orttirishga o'z hissamizni qo'shgan bo'la olamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
2. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt
3. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi – T.: 1993.
4. Matyakubov O. Maqomot – T.: 2004.
5. Rajabiy Yu. O'zbek xalq muzikasi. V tom. Buxoro maqomlari – T.: 1959.
6. Rajabov I. Maqomlar – T.: 2006.
7. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi – T.: 1997-yi
8. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi – T.: 2000.